

YER VA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHDA BIOLOGIK XILMA-XILLIKNI SAQLASH

Dadaboyeva Dilafrō`z –

Namangan davlat universiteti Tadqiqotchisi.

Shaydullayev Iskandar –

Namangan davlat universiteti Tadqiqotchisi.

Abdunabiyeva Halima-NamDU Ekologiya
va atrof muhitni muhofazasi yo`nalishi talabasi.

Parpiyeva Mohichehra NamDU Ekologiya
va atrof muhit muhofazasi yo`nalishi talabasi.

Annatotsiya: *Ushbu maqolada oxirgi yillarda yerlarni o`zlashtirilishi insonlar o`z manfaatlarini o`ylab ekin maydonlarini chetki qismlaridagi asosiy ariqlarni bitonlashtirilishi oqibatida biologik xilma xillikga ta`sir ko`rsatishi tahlil qilinadi Qolaversa, biologik xilma-xillikni yo`qolib borishini oldini olish maqsadida amalga oshiriladigan ishlarni umumiy taxlili batafsil yoritiladi.*

**Kalit so`z:** *O`simlik, xilma-xillik, resurs, iqlim, sug`orish tarmoqlari, agrotexnologik jarayonlar, yer osti suv sathi, mentha arvensis, ichki sug`orish tarmoqlari.*

Mazuni dolzarbligi. “O`zbekiston Respublikasining Biologik xilma-xillik haqidagi Konvensiyaning bioxavfsizlik bo`yicha Kartaxena protokoliga qo`shilishi to`g`risida (Monreal, 2000-yil 29-yanvar)”gi O`zbekiston Respublikasining [Qonuni](#) ijrosini ta`minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2020-yil 11-maydagi 275-sonli qaror qildi. shu kabi qaror va farmonlarni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ayrim muammolarni yechimlari bugungi kunning dolzarb masalalaridandir. Bugungi kunda ekologik muammolar jadallik bilan rivojlanib bormoqda, buning asosiy sabablaridan biri suv resurslari va iqlim ilishi hisoblanadi. Yerlarni o`zlashtirilish, inson o`z maqsadida foydalanishi, ekin maydonlar qirg`oqlaridagi ichki ariqlar, ya`ni suv yo`llarini betonlashtirilishi sababli ushbu

yerlardagi o'simlik va hayvonlarni nobut bo'lishiga olib kelamogda. Ichli sug'orish tarmoqlarini betonlashtirish suv sarfini kamaytiradi ammo o'sha yerdagi bioxilma-xillikni yo'qolishiga sabab bo'ladi.

Tadqiqot usullari va uslubiylari. Dala tadqiqotlari, floristikaning marshrutli, yarim statsionar, sistematik, areologik, biomorfologik usullari, shuningdek, raqamli ma'lumotlar bazasi va GAT xaritarpar taxlilining zamonaviy usullari ko'llanilgan. Olingan ma'lumotlarning matematik-statistik tahlili, o'rta arifmetik qiymati o'rtacha kvadratik chetlanish va boshqalar Sh.Karimov, G'.Yuldashev hamda V.Samsonovalarning «Microsoft Excel» dasturi yordamida hisoblandi. Shu asosda olingan ma'lumotlar tadqiqot natijalarini tashkil qildi.

Tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2023 yil 29 noyabr kuni "Qishloq xo'jaligida suv resurslaridan oqilona foydalanish va yo'qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida berilgan topshiriqlardan kelib chiqib, kuzgi-qishki irratsiyamelioratsiya tadbirlarini o'tkazish, sho'r yuvish ishlarini tashkil etish, mavjud suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, ichki sug'orish tarmoqlarini betonlashtirish va suv olish quloqlarini ta'mirlash hamda suv yo'qotishlarni oldini olish maqsadida Viloyat tumanlarida 2023-2024 yillarda ichki sug'orish tarmoqlarida betonlashtirish tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha manzilli ishlar olib borish belgilangan bo'lib. 1-jadval (Namangan viloyat xokimligi: 490-6-0-Q/23) bunga ko'ra viloyat hududidagi ichki sug'orish tarmoqlari uzunligi 9 590 km ni tashkil etadi va ushbu rejani amalga oshirishning 1-bosqichida 1300 km, yani dekabr oyi uchun 371 km, yanvar oyi uchun 344 km, fevral oyi uchun 382 km va mart oyi uchun esa 203 km uzunlikdagi turli suv sarfiga ega bo'lgan ichki sug'orish tarmoqlari ni betonlashtirish rejasi belgilangan edi.

1-jadval.

Viloyat tumanlarida 2023-2024 yillarda ichki sug'orish tarmoqlarida betonlashtirish tadbirlarini amalga oshirish rejasi.

Namangan viloyati	Shundan dekabr, mart	Shu jumladan, oylar kesimida betonlashtiriladigan qismi
-------------------	----------------------	---

	Jami uzunligi, km	oylarida betonlashtirishga belgilangan reja, km	Dekabr	Yanvar	Fevral	Ma
Jami	9590	1300	371	344	382	20

Yuqorida belgilangan ishlarni amalga oshirilish holati 2024-yil may-iyun oylarida o`rganilgan ma`lumotlarga ko`ra (2-jadval) amalda bajarilgan ichki sug`orish tarmog`i 72 % ni, ya`ni 9,8 km, jami betonlashtirilgan ichki su`g`orish tarmoqlari 97 % ga (1 260 km) bajarildi. ushbu betonlashtirilgan ichki suv tarmoqlarining 66 % (829 km) qismi 0,1-0,5 m³/s, 32 % (401 km) qismi 0,5-1,0 m³/s va qolgan 2 % (30 km) qismi 1,0-2,0 m³/s ni tashkil qiladi ko`rinib turibdiki ushbu ariqlar asosan o`simlik qoplami va boshqa organizmlar yashash muhiti hisoblanadi.

2-jadval.


Namangan viloyatida 2023-2024 yillarda klaster va fermer xo`jaliklari hisobidagi ichki sug`orish tarmoqlarini betonlashtirish to`g`risida

Nama ngan viloyati	2023-2024 yillar rejasi, km		Amalda betonlangan ichki sug`orish tarmog`i				Betonlangan ichki sug`orish tarmog`ining suv sarfi:		
			bir kunda		jami		0, 1-0,5 m ³ /s	0, 5-1,0 m ³ /s	1,0 -2,0 m ³ /s
	j ami	k unlik	k m		k m		k m	k m	km
Jami	1 300	1 4	9 ,8	2	1 260	7	8 29	4 01	30

Buni oldini olish uchun ekin maydonini markaziy qismidan ma`lum bir maydonni qo`riqxon sifatida ajratib qo`yish lozim. Masalan: Qo`riqhona uchun ajratiladigan maydon umumiy maydonni 5-10 foiz qismi bo`lishi kerak.

Tashkil etiladigan muhofaza zo`na

rasm-1.



Biosfera qo'riqxonalari "barqaror rivojlanish uchun o'rganish joylari" bo'lib, ular biologik xilma-xillikni saqlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ilmiy, o'rganishga asoslangan yondashuv orqali uyg'unlashtirishga intiladi. Biosfera rezervatlari an'anaviy qo'riqlanadigan hududlarni bioxilma-xillikni qat'iy saqlashning "asosiy hududi", ekologik jihatdan to'g'ri foydalanish va ilmiy tadqiqotlarning "bufer zonalari" va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga intilayotgan ko'proq aholi populyatsiyalarining "**o'tish zonasi**" ni o'z ichiga olgan keng landshaft bilan birlashtirishga intiladi (1-rasm).

Ekin maydonidagi sug'orish ishlari, agrotexnologik jarayonlar shu qo'riqxonaga nisbatan amalga oshiriladi. Shunda ushbu hududda yashaydigan o'simlik va hayvonlar qo'riqxonaga migratsiya qilishi shu bilan birga tabiiy ekotizimlarni saqlanishi uchun xizmat qiladi.

Bu xosil qilingan qo'riqxonadan ekologiya sohasida unumli foydalanish imkoniyatlarini bir nechta turlarini taklif qilishimiz mumkin. Masalan, o'sha qo'riqxonaga gallanib gullaydigan o'simliklar ekib qo'yilsa u yerdan asalarichilikda yaxshi rivojlantirish imkoniyati tug'iladi, bundan tashqari qo'riqxona atrofida shakllantirilgan qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridagi ekinlarni yaxshi changlanishiga va yuqori hosil olishga ma'lum darajada xizmat qiladi.

Ekin maydoni chetidagi ariqlarda o'simlik va xayvonot dunyosini yashash muhiti buzilishi

3-jadval.

Agar o'sha yerdagi ekin maydonni tomchilatib sug'oriladigan bo'lsa qo'riqxonona sifatida ajratilgan maydonni hovuz sifatida ajratish mumkin. Bu hovuzdan baliq yetishtirishda foydalansa bo'ladi. Yer osti suv sathi yaqin bo'lgan ekin maydonlarida ajratiladigan qo'riqxonaga ko'pyillik daraxtlar eliksa ularni ildizlari chuqur kirib borganligi sababli bosimni kamaytirib suv sathini tushishiga olib keladi.

3-jadvalda ko'rsatib o'tilganidek Mingbuloq tumanida 10 gektarli maydon chetidagi asosiy ariq betonlashtirilganda suv 0,1-0,5 m³/s tezlik bilan oqib otadi. Ammo osha yerdagi Hordeum bulbosa o'simligining 27 000 tupi, Bromus SP o'simligining 2 000 tupi va Mentha arvensis o'simligining 11 000 tupi nobut bo'lishiga olib keladi. Norin tumanida 10 gektarli maydonning ichki sug'orish tarmog'idagi asosiy ariqni betonlashtirilganda suv 0,1-0,5 m³/s tezlik bilan oqib o'tadi. Bunda Hordeum bulbosa o'simligining 19 000 tupi, Mentha arvensis o'simligining 22 000 tupi va Bromus SP o'simligining 95 000 tupi nobut bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Pop tumanidagi 10 gektarli maydonni ichki sug'orish tarmog'idagi asosiy ariqlarni betonlashtirilsa suv 0,1-0,5 m³/s bilan oqib o'tadi. Ammo o'sha yerdagi Mentha

T /R	O'simliklar	Mingbuloq tumani		Norin		Pop	
		1 m ³	1000 m ³	1 m ³	1000 m ³	1 m ³	1000 m ³
1	Hordeum bulbosa	2 7 tup	2700 0 tup	1 9 tup	1900 0 tup	8 tup	8000 tup
2	Bromus SP	2 tup	2000 tup	9 5 tup	9500 0 tup	1 6 tup	1600 0 tup
3	Mentha arvensis	1 1 tup	1100 0 tup	2 2 tup	2200 0 tup	1 4 tup	1400 0 tup
4	Cheropodium alba	-	-	-	-	6 tup	6000 tup
5	Sonchus Sp	-	-	-	-	5 tup	5000 tup
6	Cynodon dactylon	-	-	-	-	6 2 tup	6200 0 tup

arvensis o'simligining 14 000 tupi, Bromus SP o'simligining 16 000 tupi, Hprdeum bulbosa o'simligining 8 000 tupi, cheropodium alba o'simligining 6 000 tupi, Sonchur SP o'simligining 5 000 tupi va Cynodoun dactylon o'simligining esa 62 000 tupi nobut bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa qiladigan bo'lsak, olingan ma'lumotlar va ularni statistik tahlili natijalariga ko'ra, fermer xo'jaligi va aholi punktlari oraliq suv yetkazish yo'llarida o'tkazilayotgan betonlashtirish tadbirlari biologik xilma-xillikka salbiy ta'sir etishi aniqlanib ushbu hududlarda qo'shimcha muxofaza qilinadigan hududlarni tashkil etish zaruriyati borligi ilmiy tadqiqotimizning xulosasi sifatida beriladi.

Ekin maydonlari markazida xudud sharoitidan kelib chiqqan holatda zaxira yer yoki boshqa yer fondi toifasiga kiruvchi maydonlardan qo'riqzona sifatida foydalanish yuzaga kelayotgan antropogen bosimni yengillashtirish uchun xizmat qiladigan asosiy yechim sifatida taklif qilishimiz mumkin.

Olingan natijalar asosida navbatdagi bosqichda betonlashtiriladigan ariqlar biodegradatsiya ko'rsatkichlarini monitoring qilish imkoniyati mavjud bo'lib, ushbu hududlarda bioxilma-xillikka ta'sir jarayonlarini aniqlash mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. “2030-yilgacha bo'lgan davrda o'zbekiston respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.
2. Namangan viloyat xokimi qarori (4900-6-0-Q/23)., Viloyatda kuzgi-qishki irrigatsiya-melioratsiya tadbirlarini o'tkazish, mavjud suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish hamda suv yo'qotishlarni oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida.
3. Гонтъе, Дэвид Дж. и др. «Сохранение биоразнообразия в сельском хозяйстве требует многомасштабного подхода». Труды Королевского общества В: Биологические науки, т. 281, № 1791, 22 сентября 2014 г., стр. 20141358., doi:10.1098/rspb.2014.1358.
4. Tojibayev K.SH., Batoshov A.R., Qodirov U.H., Akbarov F.I. O'zbekistonda flora tarkibini to'r tizimli xaritalash: dastlabki natijalar va rivojlanish istiqbollari //

Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. –Namangan, 2020 b. Maxsus son. – B. 111-116.

5. Xoshimov X.R., Batoshov A.R., Tog'ayev I.U., Abdullaev Sh.S., Farg'ona vodiysi Shimoliy adirlari va unga chegaradosh bo'lgan hududlarda olib borilgan izlanishlar tahlili. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2022 b. Maxsus son. – B. 174.